KARTOSHKA KOVLAGICHI YORDAMIDA KARTOSHKANI YIG'ISHTIRISHDA XAVFSIZLIK TEXNIKASI

S. Sofiyev, A. Yuldashev, S. Isamov
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: *Kartoshkani yig'ishni boshlashdan oldin yo'nalish aniqlanib keyin signal berilib harakat boshlash kerak. Mashina texnologik jarayoni bajarilayotganda begonalar yaqinlashishi mumkin emas. Ish jarayoni bajarilayotgan vaqtda traktor narvonchasiga chiqish, tortqida yoki mashinada turish, unga ilashish mumkin emas. Traktor ishlab turganda mashinada rostlash ishlarini bajarish man etiladi. Agar mashina ko'tarib qo'yilganda uning ostiga turish mumkin emas. Agar mashina daladan-dalaga o'tayotganda ustiga odam mindirishi qat'iyan man etiladi.*

Kalit so'zlar: *Traktor, texnika, xavfsizlik, agregat, kombayn, kamaytirish, atrof-muxit, tabiiy, bardosh, muommolar, suv, ifloslanish, kartoshka, kabina, hayvonlar.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni qabul qilindi. Bu qonunda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati aniq ko'rsatilgan bo'lib, uning 4- moddasida korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga nisbatan xodimning hayoti va sog'ligi ustivorligi ko'rsatilgan[1].

Qabul qilingan ushbu qonun ishlab chiqarish vaqtida ishchi va xizmatchilarning mehnatini muhofaza qilish va salomatligini saqlash O'zbekiston davlatining asosiy vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Inson o'zining yashash sharoitini yaxshilash, ish unumdorligini oshirish uchun yangi texnika va texnologiyalarni yaratib ishlab chiqarishga qo'llab kelmoqda. Ayniqsa xaritada ko'p miqdorda murakkab texnologiyalar ishlab chiqilmoqda va ishlab chiqarishga qo'llanmoqda. Har bir korxona o'z xodimlarini bu texnikalar bilan ishlashlari, ularni ta'mirlashlari va ulardan foydalanishlari uchun to'liq xavfsizligini ta'minlashlari kerak. Buning uchun birinchi navbatda ularni qayta tayyorgarlikdan o'tkazishlari vaqtida texnika xavfsizligi bo'yicha instruktajlar va ular asosida imtixonlar olib borishlari kerak[2].

Hamma sohalar kabi qishloq xo'jaligi ham xorijdan yangi-yangi texnikalar, jumladan don o'rish, paxta terish kombaynlari va yerga asosiy ishlov berish mashinalari olmoqda. Bu mashinalar juda murakkab bo'lib, ulardan foydalanish uchun traktorchi-mashinistlar qayta tayyorgarlikdan o'tkazilib ruxsat berilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili. Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi moshinalarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ko'plab olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga Maxoroblidze R. M, Melnikov S.B, V. Meshqunov V.A, Mosin M, Alder Yu.P, Markova E.V, Astraxan B.M, Alisenko V.M kiritish mumkin.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishidagi texnologik jarayonlar to'la mexanizatsiyalashgan. Shu jumladan kartoshka yig'ish jarayoni ham to'la mexanizatsiyalashgan. Kartoshka qazishdagi texnikalar traktor MTZ-80 va KTN-2B mashinalaridan iborat. Agregatni bir traktorist- mashinist boshqaradi[3].

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan traktorlar bajaradigan ishiga, yurish sistemasining konstruktsiyasi turiga qarab klassifikatsiyalanadi. Bu traktorlardan yerni shudgorlashda ishlatiladigan MTZ-80 traktori umumiy ishlarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib tortish klassi 14 kN. Og'ir tuproqli yerlarda, foydalanilmayotgan bo'z yerlarda va qo'riq yerlarda, sun'iy ravishda sug'oriladigan zonalarda ishlatiladi. Bu traktorlardan qishloq xo'jaligida keng ko'lamda foydalaniladi[4].

Biz traktordan foydalanishda uning konstruktsiyasiga qo'yiladigan talablarni DAST-12.2.019-76 belgilaydi va u butun qishloq xo'jalik traktorlari hamda o'ziyurar qishloq xo'jalik mashinalari uchun tarqalgan.

MTZ-80 traktori kabina bilan jihozlangan bo'lib, traktor ag'darilganda traktorchini shikastlanishdan saqlash maqsadida puxta yaxlit metal kabina bilan jihozlangan[5].

Traktor kabinasida sirpanishni kamaytirish uchun kabina poli yoki traktor maydonchasi balandligi 1-2,5 mm li taram-taram materialdan tayyorlanadi. Ilashish muftasi va traktorlarning oyoq pedallari chetida balandligi kamida. 10…20 mm bo'lgan burtchalar bo'lib, ular pedal bosilganda oyoqning sirpanmasligini ta'minlaydi. Traktor kabinasining oynasi bug'langanda yoki ifloslanganda kabina oyna tozalagich o'rnatiladi to'g'ri tushadigan quyosh nuridan saqlanish uchun kabina kozerek ko'rinishda quyoshdan himoyalanish qurilmasi bilan ta'minlangan[6].

Har bir traktor aptechka uchun g'ilof, ichimlik suv uchun hajmi kamida 3 l bo'lgan termos, o't o'chirish vositasini joylashtirish uchun qurilmalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Traktorni boshqarish uchun traktorist-mashinist guvohnomasi bo'lgan, dastlabki yoki davriy meditsina tekshiruvi va xavfsizlik texnikasiga oid instruktajdan o'tgan, shuningdek yo'l harakati qoidalarini bilgan, 17 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslarga traktorlarni haydash va ularga texnik xizmat ko'rsatishga ruxsat beriladi.

Traktorist-mashinistga faqat unga berkitilgan traktorga ishlashga ruxsat beriladi.

Faqat soz traktorga ishlashga ruxsat beriladi. Agar traktor gusenitsalari ustida himoya to'siqlari bo'lmasa, o'rindiq buzuq bo'lsa, tovush signali ishlamasa, old va ketingi chiroqlar yonmasa uni ishlatish taqiqlanadi[7].

Kartoshka kovlagich bilan ishlashda xavfsizlik choralari bo'yicha instruktsiya olgan, mashinani rostlaydigan va uni ishlay oladigan shaxslarga ruxsat beriladi. Kartoshkani yig'ishni boshlashdan oldin yo'nalish aniqlanib keyin signal berilib harakat boshlash kerak. Mashina texnologik jarayoni bajarilayotganda begonalar yaqinlashishi mumkin emas. Ish jarayoni bajarilayotgan vaqtda traktor narvonchasiga chiqish, tortqida yoki mashinada turish, unga ilashish mumkin emas. Traktor ishlab turganda mashinada rostlash ishlarini bajarish man etiladi. Agar mashina ko'tarib qo'yilganda uning ostiga turish mumkin emas. Agar mashina daladan-dalaga o'tayotganda ustiga odam mindirishi qat'iyan man etiladi. Ishlab turgan mashinani korpuslarini tiqilib qolgan o'tlardan tozalash mumkin emas.

Inson va atrof-muxit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashgan, fan-texnika jadal rivojlangan davrda tabiatni muhofaza qilish eng asosiy muammolardan hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish tushunchasi insonning atrof muhitga salbiy ta'siri yuzaga kelgan uzoq o'tmishdan yaxshi ma'lum Tabiatni muhofaza qilish deganda - hozirgi va kelgusi avlodlarning extiyojlarini xisobga olgan holda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni musaffo holida saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi[8].

Tabiatni muhofaza qilishning asosiy vazifalari-tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarishni joriy qilish, atrof-muhitni ifloslanishidan saqlash, salbiy o'zgarishlarni bashorat qilishdan iboratdir. Insonning tabiatga bevosita va bilvosita, ijobiy va salbiy ta'sir shakllari ajratiladi. O'rmonlarning kesilishi, hayvonlarni ovlash, yangi yerlarni o'zlashtirish, konlarni qazish natijasida inson tabiatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Insonning tabiatga bilvosita ta'siri-bevosita ta'sirning salbiy oqibatlari sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiy resurslarning mislsiz o'zlashtirilishi, sanoat ishlab chiqarishining ortishi, transport vositalari sonining ko'payishi atrof-muhitning kuchli ifloslanishi muammosini keltirib chiqaradi[9].

O'zbekistonda ham tabiiy muhit holati ancha ayanchli holga kelib qolgan. yer osti boyliklarining isrofgarchilik bilan o'zlashtirilishi natijasida katta maydondagi unumdor yerlar yaroqsiz ahvolga tushgan. Suv, havo, tuproq ifloslangan. CHo'lga aylanish, sho'r bosish, jarayonlari tezlashgan. Orol dengizi, Orol bo'yi muammolari yana ko'plab ekologik jumboqlarni keltirib chiqarmoqda. O'zbekistonda turli xastaliklarning ko'payishi va atrof-muhitning ifloslanishi o'rtasida bevosita bog'lanishlar kuzatilmoqda. Insonning sog'-salomatligi ijtimoiy omillardan tashqari ko'p jihatdan atrof-muhitning ekologik holatiga ham bog'liqdir. Tabiiy muhit toza, havo, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot olamining tozalik darajasi tabiiy me'yorda bo'lsa, inson sog'ligi ham shuncha mustahkam bo'ladi. SHundagina kishi organizmi tashqaridan to'satdan bo'ladigan ba'zi xurujlarga bardosh bera oladigan va qarshi kurasha oladigan darajada rivojlanadi.

Respublikamizda suvlardan oqilona foydalanish maqsadida ilg'or chet el tajribalari joriy qilinmoqda. Tomchilab sug'orish, suvlardan takror foydalanish oqovalarni tozalash shular jumlasidandir. Suv havzalariga tushadigan sanoat oqovalari keyingi 5 yil ichida 2 yarim marta kamaygan. Suvlarni me'yoridan ortiq ifloslangani uchun jarima va to'lovlar belgilangan. O'zbekiston Respublikasida suvdan foydalanish maxsus qonun asosida amalga oshiriladi. «Suv haqidagi va suvdan foydalanish» to'g'risidagi qonun 1993 yil 6 mayda qabul qilingan. SHunday qilib, kishilik jamiyatida suvning o'rnini bosadigan boshqa hech qanaqa resurs yo'qdir. Bu esa suvning bebaho ekanligidan darak beradi. Kelgusida toza suv tanqisligi sezilsa, insoniyat bir qancha qo'shimcha choralar ko'rishga majbur bo'ladi. Bunday choralar qatoriga muzlik suvlaridan foydalanish, dengiz va okean suvlarini chuchuklashtirib foydalanish va nihoyat yomg'ir suvlaridan foydalanish kabi vazifalar kiradi[10].

Ko'rib o'tilgan ekologik muommolarni hal qilishda fermer xo'jaliklarida agroiqlim imkoniyatlaridan to'la foydalanib agrotexnik tadbirlar bilan birga olib borilsa ekologik muvozanatni ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Kartoshka kovlagichi bilan ishlayotgan traktorni atrof-muhitga ajratib chiqarayotgan zaharli moddalarning ko'rsatgichlari quyidagicha hisoblanadi miqdori kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. А Юлдашев, С Софиев. ЧОРВАЧИЛИК ХАЙВОНЛАРИ ВА ПАРРАНДАЛАРИ БОҚИЛАДИГАН ЖОЙЛАРДА ХАВОНИНГ ХАРОРАТИ, НАМЛИГИ, ТЕМПЕРАТУРАСИ, БОСИМИНИ АНИҚЛАШ ЙЎЛЛАРИ. //AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI//. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=5568635115241061030&btnI=1&hl=ru. 1. 35-39. 2022
2. SS Sofiyev, ZA Xakimova, MS Abdullayeva. 2022/5/17. //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI// XAVODAGI CHANG MIQDORINI ANIQLASH YO 'LLARI. 2.5.28-31. 2022
3. SS Sofiyev, ZA Xakimova, MS Abdullayeva. 2022/5/13 //Gospodarka i Innowacje.// YER TEBRANISH SABABLARI VA OQIBATLARI. 23.58-61. 2022
4. SS Sofiyev, ZA Xakimova, MS Abdullayeva. 2022/5/13. //Gospodarka i Innowacje// ISHLAB CHIQARISHDA BAHTSIZ HODISALARINI TEKSHIRISH VA N-1 SHAKLINI RASMIYLASHTIRISH. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=11037962994153070361&btnI=1&hl=ru. 23. 54-57. 2022
5. А Юлдашев, СМ Исамов, СС Софиев, ОО Қаюмова, Н Орифжонов. //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ// ЧИҚИТЛАРНИ ЎСИМЛИКЛАРГА ХАЙВОНЛАРГА ТУПРОҚҚА ИМОРАТЛАРЛАРГА ВА БОШҚА ЖИСИМЛАРГА ТАСИРИ. 2.2. 2020
6. Саидвоисхон Саидмуродхонович Софиев, Акмалжон Мехмонович Юлдашев, Сарварбек Мамурович Исамов. АНДИЖОН, ФАРҒОНА, НАМАНГАН ВИЛОЯТЛАРИДА ЖОЙЛАШГАН ЕРЛАРНИ ШЎРЛАШГАН ЖОЙЛАРДА ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ//. 5. 2019
7. Саидвоисхон Саидмуродхонович Софиев //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ// МЕХАНИЗАЦИЯЛАШГАН, КУНГАБОҚАР САВАТЧАСИДАН МЕВАСИНИ АЖРАТИБ ОЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎЛЛАРИ. 5. 2019
8. Асадулла Дадаходжаев, Илхомжан Мирзаев, Икром Абдимоминов, Саидвоисхон Софиев. К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ТУКОВЫСЕВАЮШЕГО АППАРАТА ТИПА КМХ-65. //Российский электронный научный журнал// Российский электронный научный журнал. 1. 20-24. 2014
9. AM Yuldashev, SS Sofiyev, SM Isamov, N Orifjonov. YER SILKINISHIDA SODIR BO 'LADIGAN

O ‘ZIGA XOS JARAYONLAR. //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИ//. //https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=15481083833911708661&btnI=1&hl=ru. 210

10. С Софиев, Н Орифжонов. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ЯНГИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ. // ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИ//. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=2283741736934563818&btnI=1&hl=ru 72.